

**BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINIF O’QITUVCHILARINING
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOLANTIRISH
TIZIMINING MANTIQUIY TUZILMASI VA MAZMUNI**

Xidirova Gavhar Babaqul qizi

Oriental universiteti “Uzluksiz talim pedagogikasi”

kafedrasi o’qituvchisi

xidirova.gavhar@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0005-5244-998X>

+998881787770

Annotatsiya. Mamlakatimiz ta’lim tizimini keng qamrovli isloh qilish ilg’or xorijiy ta’lim tajribasini o’rganish, tahlil qilish hamda ta’lim muassasalari sharoitiga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik va didaktik xususiyatlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Tayanch fanlarni yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o’qitish, o’quvchilarni ularning murakkab dunyosi bilan tanishtirish, axborot madaniyatini shakllantira oladigan o’qituvchilarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalari hisoblanadi.

Kalit so’zlar: Zamonaviy ta’lim, boshlang’ich sinf o’qituvchisi, axborot kompetentligi, kompetensiya, o’quvchi, axborot kommunikatsion vositalari.

Annotation. A comprehensive reform of the education system of our country requires the study, analysis of advanced foreign educational experience and the development of socio-pedagogical and didactic features of its adaptation to the conditions of educational institutions. Teaching basic subjects using new information and communication technologies, introducing students to their complex world, and training teachers who can form an information culture are urgent issues today.

Keywords: Modern education, primary school teacher, information competence, competence, student, information and communication tools.

Аннотация. Комплексная реформа системы образования нашей страны требует изучения и анализа передового зарубежного опыта в сфере образования, а также разработки социально-педагогических и дидактических особенностей его адаптации к условиям образовательных учреждений. Преподавание базовых предметов с использованием новых информационно-коммуникационных технологий, приобщение учащихся к сложному миру и подготовка учителей, способных формировать информационную культуру, являются актуальными проблемами современности.

Ключевые слова: Современное образование, учитель начальных классов, информационная компетентность, компетентность, ученик, информационно-коммуникационные средства.

KIRISH

O'sib kelayotgan yosh avlodning yetuk inson bo'lib kamol topishida pedagoglarning o'zni beqiyosdir. Hozirda dunyoning oldi mamlakatlar ta'lim tizimiga oid tajribasini o'rganish, milliy ta'lim tizimimizga mos bo'lgan jihatlarni amaliyotga tatbiq qilish bizdagi ta'lim tizimini jahon standartlari darajasiga olib chiqish uchun juda muhimdir. Biz uchun taniqli bo'lgan rus pedagogi S.Suxomlinskiy shunday deb aytgan “Yaxshi murabbiy bo'lgan taqdiridagina yaxshi pedagog bo'lish mumkin. Pedagogning butun pedagogik madaniyati, bilimi tarbiyaviy ishda kor qilmasa befoyda yukka aylanib qoladi.” Pedagogning tajribali mutaxassis sifatidagi kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish yosh avlodni mehnat faoliyatlarida o'z o'rnini egallashlariga, sifatli ta'lim olishlariga yordam berishi kerak, ammo bunday vaziyatda eng muhimi shaxsni talabga to'la javob beradigan darajada shakllantirish dolzarb muammolardan biridir. Bo'lajak pedagogning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish pedagoglarni tayyorlashdagi muhim muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Bo'lajak pedagoglarni amaliy, metodik, psixologik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan boyib bormoqda. Shu uchun ham pedagoglarni tayyorlash ta'lim jarayonining muhim vazifasi bo'lajak pedagogning kasbiy pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblangan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak Bundan tashqari kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin.

Dunyo miqyosida boshlang'ich ta'lim va tarbiyaning innovatsion modellarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish, o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, o'quvchilarning intellektual, nutqiy-estetik va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar alohida ahamiyatga molikdir. Dunyoda o'quvchi-yoshlarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda o'quv-tarbiya jarayoni natijaviyligiga alohida e'tibor qaratilib, takomillashtirilgan metodik tizimni ishlab chiqish zarurligiga urg'u berilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda avvalo bo'lajak pedagoglarning boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid metodik va nazariy tayyorgarligini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida takomillashgan metodik tizimni yaratishga oid ilmiy jihatdan asoslangan takliflar, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, o'quvchilarda nutqiy bayon va fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish, muloqot va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODIKA

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitish jarayonida kutilayotgan natija umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar orqali taqdim etilgan asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga qo'yilgan talablar ko'rinishida shakllantirilgan. Davlat ta'lim standartlarida bo'lajak o'qituvchining profilli (mutaxassislik) kompetensiyasi ham aniqlangan bo'lib, u o'qituvchining kasbiy kompetentligining muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda u juda kam o'rganilgan muammolardan biridir. Ana shunday masalalardan biri bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga kompetentli yondoshuvni aniqlash va Davlat ta'lim standartlarining asosiy qoidalariga mos holda uning tuzilmaviy modelini ishlab chiqishdan iborat. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini aniqlash uchun ushbu tushunchani o'rganishga bag'ishlangan ba'zi bir tadqiqotlarga e'tiborni qaratamiz. Kasbiy kompetensiya pedagogik muammo sifatida o'rganilgan tadqiqotlarda asosan, o'qituvchining xususiyatlari tahlil qilingan.

V.I. Baydenko «kasbiy kompetentlik» tushunchasini quyidagicha tavsiflagan:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yuritish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarga, kasbiy muammolarni qisman hal etishda bir vaqtda avtonomlik va egiluvchanlik xususiyatlariga ega bo'lish;
- kasbiy shaxslararo muhitda hamkasblar bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- faoliyat mezonini (sifat o'lchovi), qo'llash sohasi, talab etiladigan bilimlarni o'z ichiga olgan standartlarni loyihalash tuzilmasi;
- ish beruvchi talablariga ko'ra kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi qobiliyatlardan samarali foydalanish;
- insonga hozirgi zamon mehnat muhitida ish faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi bilimlar, xususiyatlar va ko'nikmalarning integrallashgan birlashuvi [4,72]. Bo'lajak pedagoglarni amaliy, metodik, psixologik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan boyib bormoqda. Shu uchun ham pedagoglarni tayyorlash ta'lim jarayonining muhim vazifasi bo'lajak pedagogning kasbiy pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblangan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak Bundan tashqari kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan anglashimiz mumkinki, til ta'limiga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Biz quyida “kommunikativ kompetensiya” tushunchasining paydo bo'lish tarixi, mazmuni va pedagog olimlarning fikrlariga to'xtalamiz. “Kommunikativ kompetensiya” atamasi ilmiy adabiyotga D.Xayms tomonidan kiritilgan. O'tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab tilni o'rganishga doir dastlabki kompetensiyalar kiritila boshlandi. Bunda D.Xayms tomonidan 1972-yilda

“kommunikativ kompetensiya” tushunchasi kiritiladi. Kompetensiya/ kompetentlik kategoriyalarini tilni, ayniqsa, ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o‘rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o‘rganishda foydalanila boshlandi [2,97].

E.V. Melnik "axborot va kommunikatsiya kompetensiyasi" atamasini "kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda izlash, tanlash, tahlil qilish, tartibga solish, taqdim etish va uzatishning har tomonlama qobiliyati" deb talqin qiladi [1, 115–117]. Asosiy qism. Bizning nuqtai nazarimizdan, axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi zamonaviy insonning asosiy ko‘nikmalaridan biri bo‘lib, birinchi navbatda, shaxsiy kompyuterlar va kompyuterlarni qayta ishlash bilan bog‘liq turli muammolar va vaziyatlarni hal qilishda namoyon bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya savodxonligi bo‘yicha funksional savodxonligi (bilim) darajasi quyidagi bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi: - o‘qitish va takomillashtirishda kompyuterdan foydalanish imkoniyatlarini bilish; - boshlang‘ich ta’limni tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish usullarini o‘zlashtirish; - o‘rganilayotgan fan bo‘yicha bilim darajasini aniqlashda kompyuterdan foydalana olish va o‘z-o‘zini nazorat qilishni tashkil etish; - axborot va an’anaviy ta’lim texnologiyalarining optimal moslashuvini bilish; - o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va hokazo. Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchilarning funksional kompetensiyasi o‘z-o‘zidan ta’lim tizimi natijalarini sifat jihatidan o‘zgartirishga olib kelmaydi. Yuqori samaradorlik natijalariga erishish uchun ta’lim faoliyatida AKT sohasidagi bilim saviyasidan samarali va tizimli foydalanish zarur.

G.A. Larionovanning fikriga ko‘ra, tayyorlik tuzilmasiga amaliy bilimlar majmuasi va shaxsning faoliyatga kirishini ta’minlovchi xususiyatlari kiradi. Mehnatga tayyorgarlik esa ikkita, ya’ni operasional (bilim va ko‘nikmalar) va shaxsiy (ko‘rsatma, mehnatga yo‘naltirilganlik, kasbiy motiv xususiyatlari, odat va munosabatlar tizimi, emotsional va irodaviy funksiyalar, shaxsning kasbiy ahamiyatli sifatleri) komponentlardan iborat murakkab tizim hisoblanadi [5,171].

Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya’ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash - kompetentli yondoshuv deyiladi. Oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarini tayyorlash sifatini boshqarishning konseptual muhim usullaridan biri - kasbiy ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kommunikativ kompetensiyaning zarur darajasi o‘qitish bosqichi va maqsadi bilan belgilanadi. O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyaning shakllantirishda ta’limning har bir bosqichida alohida e’tibor beriladi. O‘quvchilarning yoshi ulg‘aygan sari ularning kompetentligiga qo‘yilgan talab ham ortib boraveradi. Bundan tashqari

dars jarayonidagi tillararo integratsiya kommunikativ kompetensiyani, ya'ni ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda xorijiy tilda muloqotga kirisha olish layoqatini yanada rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilmay turib natijaga erishish qiyin. Ular quyidagilar:

- o'quvchilardagi qo'rquv hissi. Qo'rquv hissi o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ko'rsatishga halaqit beradi. Ichki qo'rquvga ega bo'lgan o'quvchilarni doimo “xato qilib qo'ysamchi?”, “mening fikrim xato bo'lsachi?” kabi savollar qiynaydi.

- o'quvchining tortinchoqligi. Odatda, tortinchoq o'quvchilar muloqot jarayonida juda passiv bo'ladilar. Ularda tortinchoqlik bolalikda paydo bo'ladi. Agar bunday o'quvchilarda muloqotchanlik ko'nikmasi to'g'ri shakllantirilmasa, ularda tortinchoqlik uzoq muddat saqlanib qolishi mumkin.

- o'quvchining darsdagi nafaolligi;

- o'quvchilarning o'z shevasida gapirishi.

Kommunikativ mashqlar nutq malakalarini shakllantirish va til bo'yicha amaliy bilimlarning eng yuqori darajasini ta'minlaydigan ijodiy mashq turi. hisoblanadi. Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydali bo'lgan yagona mashqlar kommunikativ mashqlar va xususan, ijodiy xarakterdagi kommunikativ mashqlardir.

Kommunikativ mashqlar ba'zi talablarga javob berishi kerak.

- mashqlar aniq nutq vaziyatini, tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlarni ifodalashi kerak;

- mashq sharti tushunarli, topshiriq aniq bo'lishi kerak;

- mashqlar o'quvchilarni tezda charchatmasligi va davomiyligi 3-5 daqiqadan oshmasligi kerak.

Kommunikativ mashqlarni bir nechta turlarga bo'lish mumkin:

1. Og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar (matnni qayta so'zlab berish, matn yoki video ketma-ketlikni qayta aytib berish, aytilayotgan vaziyatga nisbatan fikr bildirish, matnni davom ettirish va boshqalar).

2. Yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar (berilgan tayanch so'zlar asosida matn tuzish, rasmlar asosida matn tuzish, aralash berilgan gaplardan matn tuzish va boshqalar).

3. O'quvchilarga beriladigan mustaqil topshiriqlar (alohida so'z va so'z brikmalarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish, matnning ayrim qismlarini o'qishni mashq qilish, tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari va boshqalar) [3.448].

Erkin va faol fikrlash, ta'lim-tarbiya jarayonini modellashtirish, ta'lim berish va tarbiyalashning yangi g'oya va texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish

qobiliyatlariga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasini oshirish muammosi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dolzarb hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari quyidagilardan iborat:

1) tashkiliy-boshqaruvchanlilik (o'quv reja, o'quv jarayoni grafigi, dars jadvalini tuzish, kompetentlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini moddiy-texnik ta'minlash);

2) o'quv-uslubiy (mashg'ulotlar mazmunini tanlash, turli kurslarning integrasiyasi, yetakchi g'oyalarni ajratish);

3) texnologik (nazorat-baholash, o'qitishning faol shakllarini tashkil etish, kompetentlikka kiruvchi bilimlar guruhlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash);

4) psixologik-pedagogik (talabalarning rivojlanish tashxisini amalga oshirish, o'qitishga motivatsiyani rag'batlantirish, kompetentlikning mezonini aniqlash, talabalarni hamkorlikda ishlashga yo'llash).

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning pedagogik ko'nikmalari orqali, ko'nikmalar (nazariy bilimlarga asoslangan va pedagogik masalalarni yechishga yo'naltirilgan bilimlar) esa, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi harakatlar majmuasi orqali aniqlanadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgandan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, axborot kompetentligi kompleksini ta'lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Ushbu texnologiyalarni ta'lim tizimiga keng joriy etish xalq ta'limi muassasalari oldiga qo'yilgan ko'p muammolarni o'z paytida hal etishga yordam beradi. Hozirda fanlarni axborot kommunikatsion vositalarining zamonaviy qurilmalaridan foydalanib o'qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlaridan boshlang'ich sinf o'qituvchilari keng foydalanish orqali o'z o'quvchilarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali yutuqlarga erishishi mumkin. Shu sababli ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash bosqichlaridayoq axborot kompetentligining talabalarda rivoj topishida ulkan hissa qo'shish muhim sanaladi.

Shunga ko'ra yosh avlod ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, yangicha o'qitish texnologiyalarini ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish hamda psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchidan metodik kompetentlik, ayniqsa, turli xil sharoitlarda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi psixologiyasini to'g'ri baholay olish bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik kompetentlikning yuqori darajada bo'lishi talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Bo'lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Conferencea, 115–117.
2. Eraliyeva D.O. Ta'limda til kompetentligini shakllantirish rivojlantirish. Magistrlik dissertatsiyasi. – Namangan: 2019. -97 b.
3. Азимова Е.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.
4. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОСВПО нового поколения. - М. - 2006.72с.
5. Ларионова Г. А. Компетенции в профессиональной подготовке студентов вузов: знания, действия, деятельность, самоопределение: монография. - Челябинск. 2004. - 171 с